



ANDIJON VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich

Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti

ORCID: 0009-0009-1373-3979

holmirzayevfurqatbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish ko'rsatkichlari va unga ta'sir qiluvchi omillar statistik baholanib, hudud rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'рни iqtisodiy-statistik tahlil usullari yordamida baholangan.

Kalit so'zlar: iqtisodiyot, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy tarmoqlar, kichik biznes, iqtisodiy-statistik tahlil usullari, statistik guruhlash, ekspert baholash, tahlil va sintez.

ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Холмирзаев Фурқатбек Мухтаржонович

Институт повышения квалификации кадров и статистических исследований

Аннотация. В данной статье статистически оценены показатели развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Андижанской области и факторы, влияющие на это, а также оценена роль малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии региона с использованием методов экономико-статистического анализа.

Ключевые слова: экономика, макроэкономические показатели, валовой региональный продукт, отрасли экономики, малый бизнес, методы экономико-статистического анализа, статистическая группировка, экспертная оценка, анализ и синтез.

ECONOMIC-STATISTICAL ANALYSIS OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN ANDIJAN REGION

Kholmirzayev Furkatbek Mukhtarjonovich

Institute of Human Resource Development and Statistical Research

Abstract. This article statistically evaluates the indicators of the development of small business and private entrepreneurship in Andijan region and the factors affecting it, and the role of small business and private entrepreneurship in the development of the region is evaluated using the methods of economic and statistical analysis.

Keywords: economy, macroeconomic indicators, gross regional product, economic sectors, small business, methods of economic-statistical analysis, statistical grouping, expert assessment, analysis and synthesis.

Kirish.

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo'lib, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda YaIMning katta qismini tashkil qiladi. 2024-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, **AQSh**da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi **44%** ni tashkil qiladi. Germaniya, Yaponiya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlarda 50-55% ni tashkil qiladi. **O'zbekistonda** 2024-yilda KBXT ning YaIMdagi ulushi **54.3%** dan iborat bo'ldi (www.andvilstat.uz, n.d.). Bu mamlakatda qulay iqtisodiy muhit yaratilganidan dalolat beradi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes iqtisodiyotning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi. O'zbekiston ham bu borada rivojlanishda davom etayotgan bo'lib, kelajakda kichik biznesning yanada o'sishi kutilmoqda.

Andijon viloyati O'zbekistonning eng rivojlangan sanoat va tadbirkorlik markazlaridan biri hisoblanadi. Hudud geografik joylashuvi, aholi zichligi va ishlab chiqarish salohiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) viloyat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, aholining bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda Andijonda KBXTni rivojlantirish uchun davlat tomonidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kredit resurslariga qulay shartlarda ega bo'lish, soliq imtiyozlari va infratuzilmani rivojlantirish kabi choralar tufayli viloyatda yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilmoqda. Xususan, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi, avtomobilsozlik va xizmat ko'rsatish sohaslarida kichik biznesning hissasi ortib bormoqda. Ushbu maqolada Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, uning iqtisodiyotdagi o'rnini, rivojlanishi va yo'nalishlarini tadqiq qilgan, xorijiy olimlardan Marshall (2010) kichik biznes va tadbirkorlikni bozor kuchlari, talab va taklif, raqobatbardoshlik borasida o'rgangan. Uning qarashlariga ko'ra, kichik biznes yirik korxonalariga qaraganda moslashuvchanlik va innovatsionlik darajasi yuqori hisoblanadi. Shumpeter (2010) innovatsion tadbirkorlik va "ijodiy buzilish" nazariyasi bilan mashhur. Uning fikricha, kichik biznes iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlardan bo'lib, yangi g'oyalar asosan kichik biznes tarmog'ida vujudga keladi. Marshall, Shumpeter, Valeslar (2013) tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi. O'zbekistonda Mahalliy olimlarimizdan: Bayxonov (2019) tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investisiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. Abulqosimov va Qulmatovlar O'zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rnini va uni rivojlantirish yo'llarini o'rgangan. G'oyibnazarov va boshqalar (2011) tomonidan KBXT faoliyatini takomillastirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, sohada mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Andijon viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini statistik jihatdan baholashga qaratilgan bo'lib, bu muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mavzudur. Tadqiqotning obyekti – Andijon viloyati iqtisodiyoti, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi hisoblanadi. Tadqiqot maqsadi-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat iqtisodiyotidagi o'rnini statistik jihatdan baholash, ularning faoliyati samaradorligini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini KBXTning yalpi hududiy mahsulot hajmi, sanoat, aholi bandligi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi orqali baholash mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Bandlik, sanoat ishlab chiqarishi va qurilish sohalarida KBXT muhim o'rin tutib, yillar davomida sezilarli o'sish sur'atlarini namoyon etdi. 2010-2025-yillar davomidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili sohaga oid kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi. Quyidagi tahlilda kichik biznesning asosiy iqtisodiy tarmoqlarga ta'siri, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari va barqaror rivojlanish yo'nalishlari muhokama qilinadi.

1-jadval**Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi(%)**

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi				
<i>(umumiy hajmga nisbatan % da)</i>				
Yillar	YAHM	Sanoat	Qurilish	Bandlik
2015	78,5	32,0	93,9	83,8
2016	83,6	50,4	93,2	84,4
2017	80,2	34,5	93,8	84,2
2018	73,1	21,2	96,9	81,7
2019	69,7	17,7	94,9	82,1
2020	70,1	21,4	93,3	80,8
2021	72,2	27,2	95,2	80,7
2022	67,1	22,4	93,8	80,2
2023	69,1	22,2	94,6	80,7
2024-yil yanvar-dekabr*	69,5	29,9	92,8	x

Izoh: *2024-yil bo'yicha dastlabki ma'lumotlar.

Manba: www.andvilstat.uz (n.d.) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Andijon viloyatida KBXTning YAHMdagi ulushini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2016-yilda eng yuqori darajaga yetgan ya'ni 83,6% ni tashkil etgan, bu kichik biznesning iqtisodiy faol o'sganini anglatadi. 2019-yildan boshlab pasayish tendensiyasi kuzatilgan, 2022-yilda 67,1% ni tashkil etgan.. 2024-yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi 69,5% bo'lib, o'tgan yildagiga nisbatan biroz ortgan. So'nggi yillarda kichik biznesning YAHMdagi ulushi pasaymoqda, bu esa yirik ishlab chiqarish va davlat investitsiyalarining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Hudud sanoatida kichik biznes ulushini ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2016-yilda eng yuqori ko'rsatkich 50,4% kuzatilgan. 2019-yilda ulush keskin kamaygan 17,7% bu yirik sanoat korxonalarining rivojlanishi yoki kichik biznesning sanoatga kiritayotgan investitsiyalarining pasayishini ko'rsatadi. 2024-yilda kichik biznesning ulushi 29,9% natija ko'rsatgan, sanoatda kichik biznesning ulushi sezilarli darajada o'zgaruvchan bo'lib, so'nggi yillarda pasayish kuzatilgan. Bu yirik korxonalarining sanoat sohasida barqaror bo'lib borayotganidan darak berishi mumkin.

Qurilish tarmog'ida kichik biznesning ulushi 2018-yilda eng yuqori 96,9% kuzatilgan. 2024-yilda ulush 92,8% ga kamaygan bo'lsa ham, qurilish sektori kichik biznes uchun eng barqaror soha bo'lib qolmoqda, lekin ulushning pasayishi yirik qurilish kompaniyalarining ahamiyati ortayotganini ko'rsatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar ulushi 2016-yilda eng yuqori 84,4% ko'rsatkichni tashkil etgan. 2022-yilda 80,2% gacha tushgan, 2024-yil bo'yicha bandlik ma'lumotlari mavjud emas. Kichik biznesning bandlikdagi ulushi asta-sekin pasaymoqda, bu esa korporativ va davlat ish o'rinlarining ahamiyati ortayotganidan darak beradi. 2024-yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi ortgani tiklanish belgisidir, ammo hali ham 2016-yil darajasiga yetmagan.YAHMdagi ulushning pasayishi kichik biznesning yirik korxonalar bilan

raqobatda zaiflashayotganini ko'rsatishi mumkin. Andijon viloyatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun sanoat va xizmatlar sektorlarida imtiyozli kreditlar, soddalashtirilgan soliq tizimi va startaplarni rivojlantirish dasturlari zarur.

2-jadval

Andijon viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Andijon viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari 2015-2024 -yillar										
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024*
Yalpi hududiy mahsulot	103,4	100,6	104,1	110,1	105,8	102,2	105,4	108,9	104,9	106,6
Sanoat mahsuloti	89,5	74,8	126,8	130,6	114,7	106,3	98,7	122,8	107,4	107,3
Asosiy kapitalga investitsiyalar	105,1	102,4	114,3	113,7	129,0	110,6	106,0	116,5	121,2	136,9
Chakana savdo tovar aylanmasi	113,5	112,6	101,8	106,5	108,6	102,3	106,0	109,7	108,4	108,5
Xizmatlar, jami	119,4	115,8	105,3	107,2	110,9	105,6	118,3	113,0	111,1	113,1
Tashqi savdo aylanmasi	63,8	70,5	144,8	136,3	116,4	110,4	113,2	135,3	117,9	82,7
Eksport	31,6	128,8	149,8	89,5	139,9	116,9	167,6	127,3	93,4	102,3
Import	75,5	61,6	143,2	151,9	111,8	108,8	98,9	138,8	127,9	76,8


Manba: www.andvilstat.uz (n.d.) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Andijon viloyatining 2015–2024 yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilinganda quyidagi tendensiyalarni ko'rishimiz mumkin: YHMning o'sish sur'ati yillar kesimida nisbatan o'zgarib borgan. 2015-yildan 2024-yilgacha: 2018-yilda eng yuqori o'sish 110,1% kuzatilgan, bu esa investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bog'liq. 2016-yilda o'sish eng past darajada 100,6% bo'lib, bu iqtisodiy sekinlashuv yoki tashqi omillar bilan izohlanishi mumkin. 2024-yilda dastlabki ma'lumotlar asosida 106,6% o'sish kuzatilgan, bu 2023-yildagi ko'rsatkichdan yuqori.

2017-2018-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning sezilarli o'sishi 126,8% va 130,6% kuzatilgan. 2016-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish keskin pasaygan 74,8% ni tashkil etgan, 2024-yilda sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,3% bo'lib, barqaror o'sish kuzatilgan.


Asosiy kapitalga investitsiyalar yildan-yilga o'sib borgan, ayniqsa 2019-yilda 129,0%, 2023-yilda 121,2%, 2024-yilda esa 136,9% bo'lgan. Bu viloyatga investitsiya jalb qilish hajmining ortib borayotganligini ko'rsatadi. 2018-yilda qurilish ishlari eng yuqori darajaga yetgan 121,8%. 2019-yilda pasayish kuzatilgan (99,3%), ammo keyingi yillarda o'sish tiklangan. 2024-yilda qurilish sektori 111,0% o'sish ko'rsatgan. 2015-2024-yillarda chakana savdo barqaror o'sib kelgan, eng past o'sish sur'ati 2017-yilda (101,8%), eng yuqori o'sish esa 2015-yilda (113,5%) bo'lgan. 2024-yilda 108,5% o'sish kuzatilgan, bu iqtisodiy faollikning yuqoriligini ko'rsatadi.

Xizmatlar ko'rsatish hajmi 2015-2024-yillar davomida muntazam o'sib borgan. 2024-yilda xizmatlar hajmi 113,1% o'sgan, bu sektorning iqtisodiyotdagi ulushi oshib borayotganini anglatadi. Tashqi savdo hajmi keskin o'zgaruvchan bo'lgan. 2017-2018-yillarda 144,8% va 136,3% o'sish kuzatilgan, bu eksport va import hajmining oshganini ko'rsatadi. 2024-yilda 82,7% ga tushib ketgan. Eksport 2017-yilda 149,8% gacha ko'tarilgan, 2019-yilda 139,9%, 2021-yilda esa eng yuqori daraja 167,6% ga yetgan. Bu ko'rsatkichlar Andijon viloyatida iqtisodiy tarmoqlarda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligini ko'rsatadi.




1-rasm. Andijon viloyatida kichik biznes korxonalarining demografik holati, birlikda
 Manba: www.andvilstat.uz (n.d.) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Bugungi kunda Andijon viloyatida 2025- yanvar holatiga 47358 ta kichik tadbirkorlik subektlari ro'yhatdan o'tgan bo'lib, ulardan 19967 tasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 27391 tasi faoliyat ko'rsatmayapti, jamidan 4122 ta sub'ekt yangi tashkil etilgan. 1646 ta kichik sub'ekt faoliyatini tugatgan.



2-rasm. 2024- yilda hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da
 Manba: www.andvilstat.uz (n.d.) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 27 085,4 mlrd soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,9 % ni tashkil etdi. Hududlar kesimida viloyatdagi Andijon tumani sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 81,5 % kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Jalaquduq tumani (74,7 %), Izboskam tumani (100,0 %), Ulugʻnor tumani (92,2 %), Qoʻrgʻontepa tumani (66,1 %) tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Asaka tumani (1,9 %), Paxtaobod tumani (37,6 %), Oltinkoʻl tumani (40,0 %)ni tashkil etdi. Kichik biznesning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi past boʻlgan hududlarda, asosan, yirik sanoat korxonalarining ustunligi kuzatiladi. Masalan, Asaka tumanida ulkan sanoat ishlab chiqarish korxonalarini faoliyat yuritganligi sababli kichik tadbirkorlik subyektlari umumiy hajmda kichik ulushga ega boʻlgan. Shu kabi holat Paxtaobod va Oltinkoʻl tumanlarida ham kuzatilgan. Yaʼni, yirik sanoat korxonalarini joylashgan hududlarda ular umumiy ishlab chiqarish hajmiga sezilarli taʼsir oʻtkazib, kichik biznes ulushini nisbatan pasaytirgan. Aksincha, yirik sanoat korxonalarini kam boʻlgan hududlarda kichik tadbirkorlik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yetakchi oʻrinni egallagan.



3-rasm. Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha taqsimlanishi

Manba: www.andvilstat.uz (n.d.) rasmiy sayt maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Yuqoridagi rasmdan koʻrinadiki, eng koʻp kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 36,2 %i), sanoatda (16,6%), qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi (11,7 %) sohalarida tashkil etilgan.

2024- yil davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- YaHMning 69,5 %i (2023- yilda 69,1 %) kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan.

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 23 085,4 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining 25,4 %) tashkil etgan;

- qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklarining ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) hajmi 45 070,4 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻsish surʼati 103,1 % (qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi yalpi mahsulotining 96,9 %, Respublika yalpi mahsulotining 4,7% ini) tashkil qilgan;

- 13 131,2 mlrd. soʻmlik investitsiyalar (viloyat boʻyicha umumiy investitsiyalar hajmining 34,1 %i) oʻzlashtirildi va 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 103,1 %ni tashkil qilgan;

- 12 152,1 mlrd. soʻmlik qurilish-pudrat ishlari bajarildi va 2023-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 11%ga oshgan;

- xizmatlar umumiy hajmining 75,3 %i yoki 31 519,9 mlrd. soʻmi (106,9%) kichik biznes subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi;

Xulosa va takliflar.

Andijon viloyatida kichik biznesning iqtisodiy-statistik tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida sohaga tegishli statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va ma'lumotlar bazasini yaratish quyidagi yo'nalishlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan: viloyatning yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi tadqiq etilgan yillarda barqaror o'sib kelgan, shuningdek, sanoat, qishloq xo'jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar va xizmatlar sohasida ham o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun kichik biznes subyektlariga qulay sharoitlar yaratish zaruratini asoslaydi.

Eksport hajmining ortishiga nisbatan import hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi Andijon viloyatida mahalliyashtirish dasturlarini keng miqyosda amalga oshirish va kichik biznesning ulushini oshirish imkoniyatlarini qayta baholashni talab etadi. Shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar 2024-yilda sezilarli darajada o'sgan (136.9%), bu esa hududda biznes muhitining yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

Andijon viloyatida 2024-yilda ro'yxatga olingan korxonalar sonining ortishi bilan birga, nafaol va tugatilgan korxonalar sonining ham o'sishi kichik biznesga ajratilayotgan maqsadli imtiyozlardan foydalanish darajasini oshirish zarurligini anglatadi. Bunda, kichik biznes korxonalarining faoliyat yuritishi, ularning to'xtalish sabablari va biznesning barqarorligini ta'minlash omillarini tahlil qilish orqali sohaga oid strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi. Moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, raqamli transformatsiyani rag'batlantirish va bizneslarni barqaror yuritish bo'yicha siyosatni takomillashtirish orqali Andijon viloyati o'zining iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashi mumkin.

Adabiyotlar /Литература/Reference:

Aysachev A, Xonboboyeva M. (2024). Qishloq xo'jaligi maxsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy samaradorlikka erishishning ba'zi masalalari. *International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 72-77. <https://econferies.com/index.php/5/article/view/77>

Bayxonov B.T. (2019), "O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish". *Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent* – 76 b.

G'oyibnazarov B.K. va boshqalar (2011), *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili, Monografiya.* – T.: Fan, – 184 b.

Kholmiraev F, (2023), *Creation Of Production Strategy In Industrial Enterprises, Academia Science Repository*, P 852-854.

Kholmiraev F, (2025), *Ways to Maximize Profit in Textile Industry Enterprises, Polska Miasto Przyszłości* 56;P 159-161

Vales W.J. (2013), *Empirical research on entrepreneurial orientation: An assessment and suggestions for future research / W.J. Wales, V.K. Gupta, F.T. Mousa // International Small Business Journal.* №31(4). – P. 357-383.

www.andvilstat.uz (n.d.) rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Айсачев А. А. (2024). Экономико-статистический анализ региональных тенденций развития сельского хозяйства в разрезе территории региона. *Web of Discoveries: Журнал анализа и изобретений*, 2 (6), 119–127. Получено с <https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/1618>

Айсачев А. А. (2024). Ахоли миграцияси: статистика ва унинг иқтисодий таъсири. *Международная конференция по экономике, финансам, банковскому делу и менеджменту*, 124-130. <https://econferies.com/index.php/6/article/view/139>

Айсачев, А. (2021). *Статистический анализ экономического развития сельского хозяйства на региональном уровне. Экономика и инновационные технологии*, (4), 197–208. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11938

Маршалл А., (2010), *Принципы политической экономии*, М.: Прогресс; С.415-416.

Шумпетер Й. (2010), *Теория экономической развития*, М.: Прогресс; С. 159.